

---

## QO'G'IRCHOQLAR "TILGA KIRGANDA"

***Dunyoda bolajonlar kulgusiyu, sho'x-shodon qiyqirig'idan-da beg'ubor narsa bo'lmasa kerak. Osmon misol musaffo, tim qora ko'zlarini sizga qadagancha, biyron tilda tinmay savol berayotgan, murg'ak qalbi bilan olamdagi ajoyibotlarni o'rganishga, mushohada qilishga urinayotgan bolakaylarning nurli chehrasiga boqqan har qanday inson hayot tashvishlarini unutadi. Zero, bugun qo'shtepalik bolajonlarning chehrasiga boqar ekanmiz, aynan o'sha hayrat va quvonchni ko'rdik.***



---

13 mart kuni tumandagi 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi bolajonlar bilan limo-lim to'ldi. Bu dargohga viloyat qo'g'irchoq teatrining jamoasi tashrif buyurishdi. Teatr repertuaridan joy olgan "Karvon saroy" spektakli bolajonlarga namoyish etildi. Qo'g'irchoqlar sahnada jonlanib, tilga kirdilar va ushbu spektakl jazzi tomoshabinlarga manzur bo'ldi. Aktyorlarning qo'g'irchoqlarni mahorat bilan o'ynatishlari o'quvchilarning olqishiga sazovor bo'ldi.



2020-03-13 16:23:04